



**MAVZU: IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH BO'YICHA
EKOLOGIK-HUQUQIY HUJJATLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

Tursunboyeva Sarvinoz Akramjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti magistranti

Kirish

Bugungi kunda iqlim o'zgarishi dunyo bo'ylab insoniyat farovonligi va atrof-muhit barqarorligiga tahdid solayotgan eng muhim global ekologik muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Iqlim tizimidagi keskin o'zgarishlar atmosferaga zararli gazlarning ortiqcha chiqarilishi, sanoat ishlab chiqarishining jadallashuvi, transport vositalari sonining keskin ko'payishi, shuningdek, o'rmonlar va yashil maydonlarning qisqarishi natijasida yuzaga kelmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, Yer yuzida haroratning oshishi, qurg'oqchilik, toshqinlar, kuchli shamollar, issiqlik to'liqlari va boshqa ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishiga sabab bo'layotir.¹ Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini inson salomatligi, suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, qishloq xo'jaligi mahsuldorligi va iqtisodiy taraqqiyot jarayonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston – iqlim o'zgarishi sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan mamlakat. O'zbekistonda o'rtacha yillik harorat ko'tarilib bormoqda va prognozlariga ko'ra, bundan keyin ham o'sishda davom etadi. Iqlim o'zgarishi va ekstremal ob-havo hodisalari quruq issiqlik davrining cho'zilishi, qor to'planishining pasayishi va muzliklar degradatsiyasi, tekisliklar va tog' etaklarida bug'lanishning ortishi, qurg'oqchilik va haddan ortiq suv taqchilligi hodisalarining ko'payishiga olib keldi. Mamlakatdagi ob-havo sharoiti yanada issiq va quruqroq bo'lishi kutilmoqda. Anomal jaziramaning tez-tez va shiddatli davrlari, qurg'oqchilik va yog'ingarchilik shakllarining o'zgarishi, sharros yomg'ir, suv toshqinlari va sel kabi ushbu o'zgarishlar bilan bog'liq ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishiga olib keladi. Iqlim o'zgarishi tuproq degradatsiyasi va cho'llanishni kuchaytiradi, shu

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ob-havo>



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

bilan birgalikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda bioxilma-xillik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[1]

Shu munosabat bilan, iqlim o'zgarishiga moslashish jarayonlarini samarali huquqiy asoslar bilan ta'minlash, mavjud ekologik-huquqiy hujjatlarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, xalqaro tajribalarni milliy qonunchilikka tatbiq etish va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Mazkur tadqiqot ushbu ehtiyoj va vazifalarni huquqiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha ekologik-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish zarurligini asoslashga harakat qiladi.

Asosiy qism

1. Iqlim o'zgarishining huquqiy tartibga solinishi

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va unga moslashish jarayonlari zamonaviy xalqaro huquq tizimida muhim o'ringa ega bo'lib, bu soha har tomonlama huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Xususan, BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC, 1992) iqlim muammosiga global e'tibor qaratgan birinchi xalqaro-huquqiy asos bo'lib, unda barcha ishtirokchi davlatlardan iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish choralari ishlab chiqish va ularni amalga oshirish majburiyati belgilab berilgan. Shuningdek, 1997-yilda qabul qilingan Kioto protokoli orqali industrial rivojlangan davlatlarga issiqxona gazlari chiqindilarini aniq miqdorda kamaytirish majburiyatlari yuklatilgan [2].

2015-yilda imzolangan Parij kelishuvi esa iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu kelishuv global harorat o'sishini sanoat davriga nisbatan 2°C darajadan pastda ushlab turish va uni 1,5°C ga yaqinlashtirishni maqsad qilgan. Parij kelishuvi barcha davlatlardan iqlimga moslashish bo'yicha milliy darajadagi hissalarini aniqlash (NDC – Nationally Determined Contributions) va ularni muntazam ravishda yangilab borishni talab qiladi [3].

O'zbekiston Respublikasi ham iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro hujjatlarning to'laonli ishtirokchisiga aylangan. 1993-yilda BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasini ratifikatsiya qilgan O'zbekiston 1999-yilda Kioto protokoliga va 2018-yilda Parij kelishuviga qo'shilgan.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ekologik muammolarni tartibga solish bo‘yicha amaldagi huquqiy asoslar orasida "Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida"gi va "Ekologik ekspertiza" to‘g‘risidagi qonunlar mavjud bo‘lib, ularning barchasi mamlakatdagi ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan . Ammo ushbu qonunchilik hujjatlarida iqlim o‘zgarishiga moslashish va uni huquqiy jihatdan tartibga solish bo‘yicha aniq, batafsil va zamonaviy mexanizmlar yetarlicha aks etmagan.

Atmosfera, okeanlar, kriosfera, quruqlik yuzasi va biosfera orasidagi bog‘liqlikning vaqt masshtabi 100-109-yillarga teng bo‘lishi mumkin. Masalan, atmosfera va okeanning o‘zaro ta’sirlashuvi 100-102-yilni tashkil etadi. Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlardan ko‘rinib turibdiki, iqlim o‘zgarishi istalgan geologik davrda ro‘y berishi mumkin.[4] Issiqxona effekti hosil qiluvchi gazlar konsentratsiyasining o‘sishi tabiiy issiqxona effektining kuchayishiga va Yer yuzasining isishiga olib keldi. Agar tegishli chora ko‘rilmasa, kelgusi yuz yillikning har o‘n yilligida harorat 0,3 °C ga ortadi. Isish o‘z navbatida qutblardagi muzliklarning erishiga va Dunyo okeani sathining ko‘tarilishiga olib keladi: 2030 yilga borib, dunyo okeani sathi o‘rtacha 20 sm ga, XXI asr oxirida esa 65 sm ga ko‘tariladi (Ososkova va b., 2005). Shu sababli, iqlim xavflariga tezkor va samarali huquqiy yechimlarni ishlab chiqish, xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish va milliy qonunchilikka tatbiq etish zarur.

2. Iqlim o‘zgarishiga moslashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruriyati

Iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha mavjud huquqiy hujjatlar ayrim kamchiliklarga ega bo‘lib, ushbu kamchiliklar huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Birinchidan, amaldagi qonunchilikda iqlim o‘zgarishining mahalliy sharoitlarga ta’sirini batafsil baholash va monitoring qilish mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mahalliy ekologik sharoitlarni tahlil qilish, hududlar kesimida iqlim xavflarini aniqlash va ularning oqibatlarini huquqiy jihatdan inobatga olish tizimi hozirgi paytda aniq belgilab qo‘yilmagan.

Ikkinchidan, ekologik xavflarni boshqarish va ularni oldindan ogohlantirish bo‘yicha mavjud tizimlar barqaror va uzluksiz ishlamayapti. Ekologik monitoring bo‘yicha yagona elektron ma’lumot bazasining yo‘qligi, iqlim xavflariga tezkor



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

javob choralarini ko'rish mexanizmlarining sustligi mavjud huquqiy hujjatlarning zaif tomonlaridan biridir.

Uchinchidan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha sektorlararo hamkorlik yetarli darajada shakllanmagan. Sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, suv xo'jaligi, transport va sog'liqni saqlash kabi sohalar o'rtasida iqlim xavfini baholash va ularni boshqarish bo'yicha samarali integratsiya etilgan yondashuv yetishmayapti.

Shu sababli, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha alohida qonunni qabul qilish va unda iqlim xavflarini tahlil qilish, monitoring qilish, baholash hamda ularga qarshi chora-tadbirlarni belgilash bo'yicha aniq normalarni kiritish;

Sanoat, qishloq xo'jaligi, suv resurslari va energetika sohalarida iqlim xavfini boshqarish tizimini huquqiy jihatdan joriy etish, bu orqali sektorlararo hamkorlik va ma'lumot almashish mexanizmlarini mustahkamlash;

Iqlim prognozlarini asosida hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, hududlar iqlim xususiyatlarini inobatga olgan holda barqaror rivojlanish dasturlarini qonun darajasida tasdiqlash;

Ekologik ta'sirni baholash tizimini kuchaytirish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklarni majburiy tartibda har bir yirik loyihada hisobga olish talabini qonun hujjatlariga kiritish;

Iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, fuqarolarning iqlim xavflariga tayyorlik darajasini oshirishga qaratilgan ta'lim va axborot-kengash tizimlarini yaratish.

3. Iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha xorij tajribasi

Xalqaro tajribada iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha bir qator ilg'or huquqiy modellarga ega mamlakatlar mavjud. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2013-yilda qabul qilingan "Iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyasi" asosida barcha a'zo davlatlar iqlim xavflarini baholash, ularga javob berish va iqlim xavfini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan tizimli va sektorlararo yondashuvni joriy qilgan. Bu strategiya asosida transport, qishloq xo'jaligi, energetika va suv resurslarini boshqarish kabi asosiy sohalarida moslashuv choralarini integratsiya qilish talab etiladi va bu jarayon yillik monitoring orqali nazorat qilinadi [5].



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

AQShda esa "U.S. Climate Resilience Toolkit" doirasida iqlim xavflariga tayyor turish va ularga tezkor javob berish uchun federal va mahalliy darajada maxsus moliyaviy zaxiralar, grantlar va sug'urta tizimlari shakllantirilgan. Bundan tashqari, iqlim prognozlariga asoslangan qaror qabul qilish tizimi kuchli rivojlangan bo'lib, har bir hudud o'zining iqlim moslashuv rejalarini ishlab chiqish majburiyatiga ega [6].

Avstraliya, Yaponiya va Kanada davlatlarida esa hududiy iqlim xavflarini boshqarish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha batafsil huquqiy va institutsional mexanizmlar joriy qilingan. Avstraliyada iqlim xavfi xaritalari ishlab chiqilgan bo'lib, har bir inshoot qurilishida ushbu xaritalar asosida xavf baholanishi shart. Yaponiyada esa tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish bo'yicha ilg'or texnologiyalar joriy qilinmoqda va maxsus iqlim fondlari orqali moliyalashtirilmoqda. Kanadada esa iqlimga moslashish federal va mahalliy darajadagi qonunchilik orqali majburiy talab sifatida belgilangan bo'lib, sektorlararo koordinatsiya kuchli yo'lga qo'yilgan.

Ushbu xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, iqlim o'zgarishiga samarali moslashish uchun huquqiy va institutsional tizimni mukammal shakllantirish, moliyaviy resurslarni jalb etish, sektorlararo hamkorlikni kuchaytirish va jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu ilg'or yondashuvlarni inobatga olib, iqlim xavflariga tezkor, kompleks va moslashuvchan huquqiy choralarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarur.

4. Iqlim o'zgarishiga moslashish strategiyasini takomillashtirish yo'nalishlari O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etish maqsadida quyidagi asosiy yo'nalishlar alohida e'tiborga loyiq:

Birinchidan, iqlim xavflariga chidamli va barqaror infratuzilmani shakllantirish zarur. Bu borada yirik infratuzilma loyihalari, shu jumladan, yo'llar, ko'priklar, gidrotexnik inshootlar va binolarning iqlim xavflariga mos ravishda loyihalanishi va qurilishi huquqiy jihatdan majburiy bo'lishi kerak. Ikkinchidan, suv resurslarini boshqarish va ularni samarali muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Bu suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

etish va suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali amalga oshirilishi kerak. Suv resurslari boshqaruvida huquqiy mexanizmlar aniq belgilanishi, suv taqsimotida ekologik muvozanat va ijtimoiy adolat tamoyillari inobatga olinishi zarur. Uchinchidan, qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishiga moslashuvchan, suv va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish uchun huquqiy va iqtisodiy rag'batlantirish choralarini kuchaytirish lozim. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish tizimida ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. To'rtinchidan, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish bo'yicha qat'iy normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqilishi shart. Quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, yashil energiya loyihalarini soliq va investitsiya imtiyozlari orqali rag'batlantirish, energiya samarador qurilish standartlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Beshinchidan, jamoatchilikni iqlim xavflariga tayyorlash va iqlim o'zgarishining oqibatlari haqida xabardor qilish tizimini kuchaytirish lozim. Maktablar, oliy o'quv yurtlari va ommaviy axborot vositalari orqali iqlim savodxonligini oshirish, aholini favqulodda iqlim hodisalariga tayyorlash bo'yicha huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni joriy etish zarur. Mazkur yo'nalishlar asosida iqlim o'zgarishiga moslashish tizimini shakllantirish O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Iqlim o'zgarishi bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb va global miqyosdagi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolardan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu muammo faqat tabiatga emas, balki inson salomatligiga, oziq-ovqat xavfsizligiga, suv resurslari taqchilligiga va butun iqtisodiy taraqqiyot jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday murakkab vaziyatda iqlim o'zgarishiga moslashish va unga barqaror javob berish uchun mukammal, aniq va zamonaviy huquqiy asoslarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishiga moslashish borasida muayyan qadamlar tashlab, bir qator huquqiy hujjatlarni qabul qilgan bo'lsa-da, mavjud huquqiy bazada hali ham iqlim xavflariga tizimli, samarali va sektorlararo yondashuv yetarli darajada aks etmagan. Shu bois, milliy huquqiy hujjatlarni chuqur



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th June, 2025

tahlil qilish, ularni xalqaro huquqiy normalar bilan uyg'unlashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish, shuningdek, iqlim xavflariga javob beruvchi sektorlararo integratsiyani kuchaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonda hududiy va tarmoq darajasida iqlim o'zgarishiga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish, ularni amalda tatbiq etish va samarali monitoring tizimini yaratish lozim. Mahalliy sharoitlarni chuqur tahlil qilish asosida, har bir hudud uchun moslashuv choralari ishlab chiqish va ularni huquqiy jihatdan mustahkamlash orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash mumkin.

Shu bilan birga, aholining iqlim xavflari bo'yicha xabardorligini oshirish, fuqarolik jamiyatini jalb etish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish iqlim o'zgarishiga moslashish siyosatining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Faqat shunda O'zbekiston ekologik xavfsizlikni ta'minlash, milliy iqlim xavflariga samarali javob berish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida mustahkam qadamlar tashlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atrof-muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza: O'zbekiston Dekabr 2023 6-b
2. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC), 1992.
URL: <https://unfccc.int/>
3. Paris Agreement, 2015. URL: <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement/the-paris-agreement>
4. I. Xotamov, M. Sultanov, A. Yadgarov. Atrof - muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti Toshkent – 2021 240-b
5. European Commission. EU Strategy on adaptation to climate change. Brussels, 2013.
URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A52013DC0216>
6. U.S. Climate Resilience Toolkit. URL: <https://toolkit.climate.gov/>